

O'QITUVCHINING KOMMUNIKATIV MAHORATINI RIVOJLANTIRISH**Amonova Feruza Aziz qizi**

Osiyo xalqaro universiteti

MM1-BT25-guruh magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18174718>

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'qituvchining kommunikativ mahoratini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika va ta'lim psixologiyasi nuqtayi nazaridan har tomonlama tahlil qilinadi. Tadqiqotda pedagogik kommunikatsiyaning mohiyati, o'qituvchi kasbiy faoliyatida kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlari, ularni shakllantirish va rivojlantirish mexanizmlari ilmiy asosda ochib berilgan. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va empirik metodlarning uyg'unligiga asoslanib, pedagogik kuzatuv, anketa-so'rov, tajriba-sinov ishlari hamda matematik-statistik tahlil usullarini o'z ichiga oladi¹. Tajriba natijalari o'qituvchining kommunikativ mahorati ta'lim samaradorligi, o'quvchilarning darsdagi faolligi va o'quv motivatsiyasiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi.² Tadqiqot yakunida pedagogik faoliyatda kommunikativ kompetensiyaning rivojlantirishga oid ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: pedagogik kommunikatsiya, kommunikativ mahorat, kasbiy kompetensiya, pedagogik muloqot, ta'lim sifati.

DEVELOPMENT OF TEACHER'S COMMUNICATIVE COMPETENCE

Abstract. This article examines the issue of developing teachers' communicative competence from the perspective of modern pedagogy and educational psychology. The study analyzes the theoretical foundations of pedagogical communication, the role and significance of communicative competence in teachers' professional activities, as well as the mechanisms for its formation and development. The research methodology is based on a comprehensive approach and includes theoretical analysis of scientific literature, pedagogical observation, questionnaires, experimental work, and mathematical-statistical methods of data analysis. The findings demonstrate that a high level of teachers' communicative competence has a significant impact on the effectiveness of the educational process, students' learning motivation, and classroom engagement. Based on the research results, scientifically grounded and practice-oriented recommendations for the development of teachers' communicative competence are proposed.

Keywords: pedagogical communication, communicative competence, teacher professional competence, pedagogical interaction, educational effectiveness.

РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНОГО МАСТЕРСТВА УЧИТЕЛЯ

Аннотация. В данной статье проблема развития коммуникативного мастерства учителя рассматривается с позиций современной педагогики и психологии образования. В исследовании раскрываются теоретические основы педагогической коммуникации, место и значение коммуникативной компетентности в профессиональной деятельности учителя, а также механизмы её формирования и развития. Методология исследования основана на комплексном подходе и включает теоретический анализ научной литературы, педагогическое наблюдение, анкетирование, опытно-экспериментальную работу и математико-статистические методы обработки данных.

¹ Выготский Л.С. Развитие высших психических функций. Москва: 1960

² Rashidova M.S. Kommunikativ kompetentlik va pedagogik samaradorlik. Pedagogika va psixologiya, 2017

Результаты исследования подтверждают, что высокий уровень коммуникативного мастерства учителя оказывает существенное влияние на эффективность образовательного процесса, учебную мотивацию и активность обучающихся. По итогам исследования разработаны научно обоснованные практико-ориентированные рекомендации по развитию коммуникативной компетентности педагогов.

Ключевые слова: педагогическая коммуникация, коммуникативное мастерство, профессиональная компетентность учителя, педагогическое общение, эффективность образования.

KIRISH (ВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

XXI asr ta'lim tizimi o'qituvchi shaxsiga mutlaqo yangi talablarni qo'yimoqda. Endilikda o'qituvchi nafaqat fan bilimlarini yetkazuvchi, balki ta'lim jarayonining faol subyekti, o'quvchilarning shaxsiy rivojiga yo'naltiruvchi pedagog, muloqot madaniyatining namunasidir.

Shu bois o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi faqat metodik bilimlar bilan emas, balki kommunikativ mahorat bilan ham belgilanadi.

Pedagogik faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra muloqotga asoslangan jarayondir. Har bir dars, tarbiyaviy tadbir, baholash yoki maslahat berish jarayoni kommunikatsiya orqali amalga oshiriladi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot sifati ta'lim natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli kommunikativ mahorat pedagogik kompetensiyaning yetakchi tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining kommunikativ tayyorgarligi yetarli bo'lmagan taqdirda, eng mukammal dars texnologiyalari ham kutilgan natijani bermaydi.

Demak, mazkur muammo chuqur ilmiy tadqiqotni talab etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / LITERATURE REVIEW)

O'qituvchining kommunikativ mahorati masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida keng tadqiq etilgan. L.S. Vigotskiy pedagogik muloqotni shaxs rivojlanishining asosiy mexanizmi sifatida talqin qilib, ta'lim jarayonida nutq va ijtimoiy muloqotning hal qiluvchi rolini asoslab bergan. Unga ko'ra, bilimlar faqat muloqot jarayonida ijtimoiylashadi. A.A. Leontev (1978) muloqotni faoliyatning muhim shakli sifatida ko'rib, pedagogik jarayonda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining muvofiqlashtirilishini kommunikatsiya bilan bog'lagan. V.A. Kan-Kalik pedagogik muloqot nazariyasini ishlab chiqib, o'qituvchining kommunikativ uslublarini (demokratik, avtoritar, liberal) tizimlashtirgan. U o'qituvchining nutq madaniyati va emotsional ta'sirchanligini asosiy pedagogik omillar sifatida ko'rsatadi³. G'arb olimlaridan C.Rojers(2003) insonparvarlik pedagogikasi doirasida empatiya, ochiqlik va samimiy muloqotni samarali ta'limning poydevori sifatida baholagan. J. Hattie (2009) esa o'qituvchi-o'quvchi muloqotini ta'lim samaradorligiga eng kuchli ta'sir etuvchi omillardan biri sifatida statistik jihatdan asoslab bergan.

O'zbekistonlik olimlardan R. Jo'rayev(2019), B. Xodjayev, N.O'. Abdullayeva (2020)lar o'qituvchi kasbiy kompetensiyasini o'rganib, kommunikativ komponentni pedagogik mahoratning ajralmas qismi sifatida e'tirof etganlar.

³ Кан-Калик В.А. Педагогическая коммуникация, Москва, 2015

Shunga qaramay, mavjud tadqiqotlarda kommunikativ mahoratni rivojlantirishning tizimli modeli va uning tajriba-sinov natijalari yetarli darajada yoritilmagan. Ushbu maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi tizimli va kompleks yondashuvga asoslangan. Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi: aniqlovchi, shakllantiruvchi va nazorat bosqichlari.

1. Nazariy metodlar

- pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni kontent-tahlil qilish;
- pedagogik hodisalarni tizimli va qiyosiy tahlil asosida o'rganish;
- kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga oid nazariy model ishlab chiqish.

2. Empirik metodlar

- Pedagogik kuzatuv (strukturallashgan kuzatuv kartalari asosida);
- Anketa-so'rov (Likert shkalasi asosida tuzilgan savollar);
- Yarim strukturallashgan suhbatlar (o'qituvchilarning reflektiv fikrlarini aniqlash uchun);
- Pedagogik testlar (kommunikativ kompetensiya darajasini aniqlash maqsadida).

3. Tajriba-sinov metodikasi

Shakllantiruvchi bosqichda o'qituvchilar uchun quyidagi maxsus metodik mashg'ulotlar tashkil etildi:

- kommunikativ treninglar;
- rolli o'yinlar va pedagogik vaziyatlar tahlili;
- reflektiv seminarlar;
- nutq madaniyatini rivojlantirish mashqlari;
- muloqotda empatiya va teskari aloqani shakllantirish texnikalari.

Mashg'ulotlar 8 hafta davomida, haftasiga 2 marotaba o'tkazildi.

MUHOAKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

Mazkur tadqiqot natijalari o'qituvchining kommunikativ mahorati ta'lim jarayoni samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Ushbu xulosa pedagogika va ta'lim psixologiyasi sohasida olib borilgan klassik va zamonaviy tadqiqotlar bilan uyg'unlashadi hamda ular bilan ilmiy muloqot (discourse) maydoniga kiradi.

Avvalo, tadqiqot natijalari L.S. Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasiga to'liq mos keladi. Vigotskiy ta'lim va rivojlanishning o'zaro bog'liqligini izohlab, shunday yozadi: "Har qanday oliy psixik funksiyalar avval ijtimoiy darajada, so'ng individual darajada shakllanadi". Ushbu fikr pedagogik muloqotning bilimlarni o'zlashtirishdagi hal qiluvchi rolini ko'rsatadi. Tadqiqot jarayonida o'qituvchining kommunikativ ta'siri kuchaygani sari o'quvchilarning faolligi va motivatsiyasi oshgani Vigotskiy qarashlarining amaliy tasdig'i sifatida talqin etilishi mumkin. A.A. Leontev pedagogik muloqotni faoliyatni tashkil etuvchi mexanizm sifatida baholab, "muloqot pedagogik jarayonda mustaqil hodisa emas, balki faoliyatni boshqaruvchi omildir" deb ta'kidlaydi. Ushbu tadqiqotda kommunikativ treninglardan so'ng o'qituvchilarning dars jarayonini boshqarish, o'quvchilarning e'tiborini jamlash va teskari aloqani samarali yo'lga qo'yish ko'nikmalari rivojlangani Leontev nazariyasini empirik jihatdan qo'llab-quvvatlaydi. Pedagogik muloqot uslublari masalasida V.A. Kan-Kalikning ilmiy qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. Olim shunday yozadi: "O'qituvchining pedagogik muloqot uslubi uning kasbiy mahoratini belgilovchi eng muhim ko'rsatkichlardan biridir".

Tadqiqot natijalariga ko'ra, demokratik va hamkorlikka asoslangan muloqot uslubidan foydalangan o'qituvchilarda dars samaradorligi va o'quvchilarning faolligi sezilarli darajada oshgani Kan-Kalikning mazkur fikrlarini tasdiqlaydi.

G'arb pedagogikasida insonparvarlik yondashuvining asoschilaridan biri bo'lgan C. Rogers ta'limda samarali muloqotning asosiy shartlari sifatida empatiya, samimiylik va shaxsga hurmatni ko'rsatadi. Unga ko'ra, "ta'lim samarali bo'lishi uchun o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida psixologik xavfsiz muhit mavjud bo'lishi zarur"⁴. Tadqiqotda empatiyani rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar natijasida o'qituvchi–o'quvchi munosabatlarida ishonch kuchaygani Rogers yondashuvining amaliy ahamiyatini ko'rsatadi.

Shuningdek, mazkur tadqiqot natijalari J. Hattie tomonidan olib borilgan keng qamrovli metatadqiqotlar bilan hamohangdir. Hattie o'z ishlarida "o'qituvchining teskari aloqasi va muloqot sifati o'quv natijalariga eng kuchli ta'sir ko'rsatadigan omillardan biridir"⁵ deb ta'kidlaydi. Tadqiqot davomida kommunikativ kompetensiya ko'rsatkichlari bilan ta'lim samaradorligi o'rtasida aniqlangan musbat korrelyatsiya Hattie xulosalarini empirik jihatdan qo'llab-quvvatlaydi.

Mahalliy pedagog olimlardan R. Jo'rayev o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini tahlil qilar ekan, "kommunikativ tayyorgarlik o'qituvchining pedagogik ta'sir kuchini belgilaydi" deya ta'kidlaydi. N.O. Abdullayeva esa o'z tadqiqotlarida kommunikativ kompetensiyani pedagogik mahoratning markaziy bo'g'ini sifatida baholab, uni rivojlantirish uzluksiz kasbiy rivojlanish bilan bog'liqligini asoslab beradi⁶.

Ushbu tadqiqot mazkur qarashlarni rivojlantirib, kommunikativ mahoratni shakllantirishning aniq metodik mexanizmlarini taklif etadi.

Biroq, ilmiy bahs nuqtayi nazaridan ayrim cheklovlarni ham qayd etish lozim. Xususan, ba'zi tadqiqotchilar kommunikativ treninglarning qisqa muddatli samaradorligini tan olgan holda, ularning uzoq muddatli ta'siri masalasida ehtiyotkorona yondashadilar. Ushbu tadqiqotda ham ayrim o'qituvchilarda ijobiy o'zgarishlar vaqt o'tishi bilan susayishi mumkinligi kuzatildi.

Bu holat kommunikativ mahoratni rivojlantirish doimiy, tizimli va refleksiv jarayon ekanligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot o'qituvchining kommunikativ mahorati haqidagi mavjud ilmiy qarashlarni empirik dalillar bilan boyitadi, ularni zamonaviy ta'lim sharoitida qayta talqin qiladi hamda pedagogik kommunikatsiyani ta'lim sifatini oshirishning strategik omili sifatida ilmiy jihatdan asoslaydi.

NATIJALAR (PEZYJBTATY / RESULTS)

Tajriba-sinov jarayonida tajriba guruhi (20 o'qituvchi) va nazorat guruhi (20 o'qituvchi) o'rtasida kommunikativ mahorat ko'rsatkichlari batafsil tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatadiki:

- Kommunikativ treninglar o'qituvchining nutq madaniyati, empatiya, teskari aloqa va pedagogik ta'sirchanlik ko'rsatkichlarini sezilarli oshiradi.
- O'quvchilarning darsdagi faolligi va motivatsiyasi bilan o'qituvchining kommunikativ mahorati o'rtasida kuchli ijobiy korrelyatsiya mavjud.
- Nazorat guruhi bilan solishtirganda, treninglar va metodik mashg'ulotlar o'qituvchilarning kompetensiyasini 25–32% ga oshirgan.
- Qo'shma indeks tahlili va ANOVA natijalari treninglar samaradorligini statistik jihatdan isbotlaydi.

⁴ Rogers C. Freedom to Learn, Columbus: Merrill, 2003

⁵ Hattie J. Visible Learning, Routledge, 2009

⁶ Abdullayeva, N.O. (2020). O'qituvchining kommunikativ mahorati va pedagogik faoliyati. Buxoro.

XULOSA(CONCLUSION)

Mazkur tadqiqot natijalari o'qituvchining kommunikativ mahorati pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynashini ilmiy jihatdan tasdiqladi. Tadqiqot davomida aniqlangan asosiy xulosalar quyidagilardan iborat: Kommunikativ mahorat ta'lim samaradorligi bilan bevosita bog'liq. Tajriba guruhi o'qituvchilari kommunikativ treninglar va metodik mashg'ulotlardan so'ng nutq ravonligi, empatiya, teskari aloqa va pedagogik ta'sirchanlik ko'rsatkichlarini 25–32% ga oshirgan. Bu o'quvchilarning darsdagi faolligi va motivatsiyasiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Nazariy va empirik natijalar uyg'unligi. Tadqiqot Vigotskiy, Leontev, Kan-Kalik, Rojers va Hattie kabi olimlarning pedagogik muloqot va kommunikativ kompetensiya haqidagi nazariy qarashlarini empirik jihatdan tasdiqladi. Ularning ta'kidlashicha, muloqot nafaqat axborot uzatish, balki pedagogik faoliyatni boshqarish va o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini rag'batlantirish vositasidir. Kommunikativ kompetensiya uzluksiz rivojlanishni talab qiladi.

Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, qisqa muddatli treninglar samarali bo'lsa-da, uzoq muddatli barqaror o'zgarish uchun uzluksiz kasbiy rivojlanish, refleksiv mashg'ulotlar va amaliy tajribalarni muntazam qo'llash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Выготский Л.С. Развитие высших психических функций. Москва: 1960
2. Leontev A.A.(1978). Активность и психическое развитие. Москва.
3. Hattie, J. (2009). Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. Routledge.
4. Rogers, C. (2003). Freedom to Learn. Columbus: Merrill.
5. Кан-Калик В.А. Педагогическая коммуникация, Москва, 2015
6. Rashidova, M.S. (2017). Kommunikativ kompetentlik va pedagogik samaradorlik. Pedagogika va psixologiya, 3(12), 45-52.
7. Urisheva I.(2018). Bo'lg'usi pedagoglarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda pedagogik treninglarning o'rni. Journal-web.uz, 7(1), 15-23.
8. Mahmudova, N.O. (2019). Bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish mexanizmlari. Filologiya va pedagogika PDF, 11(2), 33-42.
9. Abdullayeva, N.O. (2020). O'qituvchining kommunikativ mahorati va pedagogik faoliyati. Buxoro.
10. Jo'rayev, R. (2019). Pedagogik kompetensiya va kommunikativ malaka. Buxoro.